Топ-300

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

________________
(OTM rektori)

2025 yil «28» 08

# KOSTYUMNI LOYIHALASH FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim sohasi:** 210 000 – San’at

**Ta’lim yo‘nalishi:** 60210400 – 60210400 –Dizayn *(kostyum dizayni)*

**Toshkent 2025**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>KL13456725</td><td>Semestr<br>3-4-5-6-7</td><td colspan="2">ECTS-kreditlar<br>6,4,5,5,5</td></tr>
<tr><td>Fan/modul turi<br>majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili-<br>O'zbek, rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4,4,4,4,4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>Kostyumni loyihalash</td><td>300</td><td>450</td><td>750</td></tr>
</table>

2.

**I. Fanning mazmuni:**

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak mutaxassisda obrazli-konstruktiv tafakkurni tug'dirish, o'z ijodiy faoliyatini o'stirish, turli assortimentdagi kiyim uchun dizayn loyihasini yaratishni, badiiy loyhalashda ijodiy uslublardan foydalanishni, kostyumning tuzilishidagi asosiy qonuniyatlar va qoidalari bilan tanishish, transfarmatsiyanining turli xil usullari yordamida kiyimlar kolleksiyasini ishlab chiqqan holda yaratishni hamda ularni yangi modellar yaratishda qo'llash malakasini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – kreativ fikrlash, ko'rish va xis etish ko'nikmalarini rivojlantirish, turli assortiment va jins guruhlari hamda vazifasini xisobga olib kostyum kompozitsiyasini (kiyim, bosh kiyim, oyoq kiyim va aksessuarlar) yaratish va dizayn loyihalarni ishlab chiqish, ijodiy g'oyalarini aniq model-konstruksiyalarida aks ettira olish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

**II. Amaliy mashg'ulotlarni bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

1. Ayollar ko'ylagi dizayn-loyihasini ishlab chiqish. Ayollar ko'ylagini asos konstruksiyasini qurish. Eskizlar ishlab chiqish.
2. Mahalliy va xalqaro bozorlarda jahon moda va to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda faol rol o'ynaydigan model va g'oyalarni tahlil qilish. Loyihaning tadbirkorlik, ijtimoiy media marketingi va biznes tahlili kabi boshqa muhim brendlarning bozor strategiyalari.
3. Ayollar ko'ylagi anologlarini to'plash va tahlil qilish. Eskiz ustida ishlash.
4. Tanlangan konstruksiya metodikasini qurush uchun dastlabki ma'lumot to'plash
5. Ayollar ko'ylagini asos konstruksiyasini hisobi
6. Eskizlarni ishlab chiqish

| | |
|---|---|
| | 7. Materiallarni tanlash va asoslash (konfiksion karta)<br>8. Berilgan assortiment bo'yicha mualliflik liboslar to'plamini ishlab chiqish. Liboslar to'plamini reklama loyihasini tayyorlash. Loyiha bo'yicha kompyuter grafikasining zamonaviy dasturlarini qo'llab Sketchbook rasmiylashtirish.<br>9. "Procreate", "CorelDRAV" grafik muxarir dasturlari asosida fashion illyustratsiyalar va eskizlar yaratish.<br>10. Qurilgan konstruksiyani maket matosida tekshirish. Bichish, ko'klash.<br>11. Asosiy matodan model namunasini bichish. Alohida bo'laklarda modelining dekorativ - elementlarini ishlab chiqish.<br>12. Yaratilgan to'plamdan 5-7 libos modelining planshetda ko'rinishini va eskizini bajarish.<br>13. Asosiy model tasviri va texnik tasvirini planshetda bajarish.<br>14. Ijodiy jarayoni skeatchbookga rasmiylashtirish Hisobot uchun planshet, tayyor libos, maketni tayyorlash<br>15. Murakkab shaklli ayollar ko'ylagi dizayn-loyihasini ishlab chiqish. Murakkab bichimdagi modellashtirish usullarini o'rganib chiqish.<br>16. Moda brendini yaratish, biznes modelini ishlab chiqish, moliyaviy rejalashtirish. Bozor tahlili, iste'molchi xatti-harakatlarini o'rganish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni o'rganib chiqish. Strategiyalarini tahlil qilish.<br>17. Yoqa va bo'yin o'mizida murakkab shakl hosil qilish va ishlab chiqish.<br>18. Volanlar, burmalar, tahlamalar, drapirovkalar bilan ishlash<br>19. Murakkab bichim asosida liboslar modellar to'plamini planshetda eskizlarini ishlab chiqish<br>20. Murakkab bichim asosida yaratilgan modelning konstruksiyasini ishlab chiqish<br>21. Modelni matoda bichish.<br>22. Buyumga texnologik ishlov berish.<br>23. To'ldiruvchi bezaklar va aksassuarlarni tanlash.<br>24. Hisobot uchun talabaning eskizlar albomi, planshet, maket va tayor model namunasi.<br>25. Bolalar uchun libos dizayn-loyihasini ishlab chiqish. Dizayn loyiha bo'yicha Sketchbook – albomini rasmiylashtirish.<br>26. Bolalar uchun libos analoglarini to'plash va tahlil qilish. Eskiz ustida ishlash.<br>27. Tanlangan konstruksiya metodikasini qurish uchun dastlabki ma'lumot to'plash.<br>28. Bolalar libosining asos konstruksiyasini hisobi.<br>29. Eskizlarni ishlabchiqish |

| | |
|---|---|
| | 30. Materiallarni tanlash va asoslash (konfeksion karta).<br>31. Qurilgan konstruksiyani maket matosida tekshirish. Bichish, ko'klash.<br>32. Asosiy matodan model namunasini bichish. Alohidabo'laklarda modelining dekorativ- elementlarini ishlab chiqish<br>33. Dizayn loyiha bo'yicha Sketchbook – talabalar eskizlar albomini rasmiylashtirish<br>34. Yaratilgan to'plamdan 5-7 libos modelining planshetda ko'rinishini va eskizini bajarish<br>35. Dizayn loyihasini taqdimotga tayyorlash. Loyiha taqdimoti.Loyihani ko'rgazmaga rasmiylashtirish.<br>36. Zamonaviy moda tendensiyasini o'rganish va taniqli brendlar DNK asini tahlil qilish.<br>37. Erkaklar ustki kiyim dizayn-loyihasini ishlab chiqish. Analoglar to'plash va taxlil qilish. Eskiz ustida ishlash.<br>38. Erkaklar ustki kiyim analoglarini to'plash va tahlil qilish. Eskiz ustida ishlash.<br>39. Tanlangan konstruksiya metodikasini qurish uchun dastlabki ma'lumot to'plash.<br>40. Erkaklar libosining asos konstruksiyasini hisobi.<br>41. Erkaklar ustki kiyim eskizlarini ishlabchiqish<br>42. Erkaklar ustki kiyim uchun materiallarni tanlash va asoslash (konfeksion karta).<br>43. Qurilgan konstruksiyani maket matosida tekshirish. Bichish, ko'klash.<br>44. Asosiy matodan model namunasini bichish. Alohidabo'laklarda modelining dekorativ- elementlarini ishlab chiqish<br>45. Dizayn loyiha bo'yicha Sketchbook – talabalar eskizlar albomini rasmiylashtirish<br>46. Yaratilgan to'plamdan 5-7 libos modelining planshetda ko'rinishini va eskizini bajarish<br>47. Dizayn loyihasini taqdimotga tayyorlash. Loyiha taqdimoti. Loyihani ko'rgazmaga rasmiylashtirish.<br>48. Kapsula kiyimlar dizayn loyihasini ishlab chiqish<br>49. Zamonaviy, milliy va chet xorijiy moda tendensiyasini rivojlanish tahlili.<br>50. Marketing tadqiqotlari va bozor o'rganish. To'plamning konsepsiyasini ishlab chiqish.<br>51.T anlangan assortiment bo'yicha yaratilayotgan liboslar to'plamini ishlab chiqish. Libosning kompozision tahlili (shakli, siluet, proporsional bo'linish, ritmik korinish va ranglar birikmasi, dekorativ bezak turlari)<br>52. Moda tendensiyalariga monan ijodiy manbaani moslashtirish. Ijodiy |

manbaani transformatsiyalash asoslash va tanlash. Partfolio yaratish
53. Ijodiy manbaaning stilizasiyalash. Uslubning kompozision vositalarini va tasviriy usullarning umumiy yechimi va tahlili. Sketchbook yaratish.
54. Matoning hususiyati, tuzilishi va fakturasini o'rganish. Liboslar to'plami uchun mato namunalarini tanlash. Mantiqiy va siluet qatorida yangi shakl hosil qilish.
55. Liboslar to'plamini qoralama eskiz, for-eskislarini yaratish. Libos to'plamida rangli va dekorativ echimni ishlab chiqish.
56. 5 ta model dizaynini AK asosida modellashtirish. 5 ta model maketni bo'z matosida bichimni tekshirish. Bichish va ko'klash.
57. Libos to'plamini maketlarida bichimini to'g'irlash va o'zgartirishlar kiritish. Bo'zdan tikilga maket namunasini hisobotga tayyorlash.
58. 5 ta model maketi, 3ta planshet va sketch-book (TEA) namoyishi.
59. Berilgan assortiment bo'yicha mualiflik liboslar yaratish. Berilgan mavzu bo'yicha assortimentni dizayn-loyihasini ishlab chiqish. Libos to'plamining tanlangan loyihalashtirish usulini asoslash.
60. Dizaynni kreativ usulini o'rganish.
61. Assortimetlar, akssesuarlar, loyihalanayotgan matolarning tashqi ko'rinishi bo'yicha kreativ tavsiyalar.
62. Bo'rtma, fakturali matolarda, libosda dekorativ bezak va bezak vositalari(kashta, applikatsiya)ni qo'llash.
63. To'plam loyihasini ishlab chiqishda loyihalashtirish usulini tanlash (mulyaj, maket asosida, muhandislik hisobi bo'yicha).
64. To'plam modelini eskizlarini grafikada ishlab chiqish.
65. To'plamning 5ta modelining xomaki texnik izohini yozish.
66. Loyiha bo'yicha kompyuter grafikasining zamonaviy dasturlarini qo'llab Sketchbook rasmiylashtirish.
67. Shahsiy brendni yaratishda taniqli mahalliy va jahon bozorida va moda olamida rivolangan brendlarni taxlil qilish. Shahsiy brendni yaratish.
68. Liboslar to'plamini reklama loyihasini ishlab chiqish.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timediya qurilmalari va kerakli uskunalar bilan jixozlangan auditoriyada kichik guruhga bo'lib bir nechta o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnalogiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mualliflik liboslar to'plamini dizaynini yaratishda muzeydagi materiallar, foto suratlardan, reproduksiyalardan, magazin va butiklardan loyihalash uchun ma'lumotlar bazasini to'plash
2. Zamonaviy moda yo'nalishi bo'yicha ma'lum kiyim assortimentini barcha badiiy vositalar bo'yicha tahlil etish.
3. Ayollar ko'ylagi dizaynini yaratishda o'zbek amaliy bezak san'ati, tarixiy liboslar, arxitektura, tasviriy san'at, tabiat shakllari dizaynini tahlil etish va ulardan zamonaviy liboslar yaratishda ijodiy manbaalar sifatida foydalanish.
4. Kostyum uchun qo'llaniladigan mato namunalarini laboratoriya sharoitida tekshirish.
5. To'plam loyihasini ishlab chiqishda turli loyihalashtirish usullaridan (mulyaj, maket asosida, muhandislik hisobi bo'yicha) foydalanish
6. Ayollar murakkab shaklli ko'ylakni qurish va modellashtirish.
7. Bel kiyimi konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
8. Konstruktor-texnologik qism, liboslar to'plamining texnologik ishlov berish xususiyatlari va tayyorlanishi.
9. Bolalar kiyimi konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
10. Erkaklar kiyimi konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
11. Berilgan vazifalar bo'yicha fotosessiyalar o'tkazish.
12. Liboslar to'plami uchun aksessuarlarni tayyorlash.
13. Loyiha bo'yicha kompyuter grafikasining zamonaviy dasturlarini qo'llab Sketchbook rasmiylashtirish.
14. Shahsiy brendni yaratishda taniqli mahalliy va jahon bozorida va moda olamida rivolangan brendlarni taxlil qilish. Shahsiy brendni yaratish.
15. Liboslar to'plamini reklama loyihasini ishlab chiqish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan Sketchbook tayyorlash va oxirgi semestrda Kurs loyihani bajarish tavsiya etiladi.

**Mashg'ulotlar shakli: Kurs loyiha (KL)**

**Kirish**

**1.** Ma'lum mo'ljal uchun buyumga qo'yiladigan asosiy talablar.

**2.** Loyihalanayotgan mo'ljal bo'yicha buyumlarni o'xshash modellarni taxlil etish.

**3.** Bozorni taxlili bo'yicha ko'rsatkichlar.

**4.** Berilgan mo'ljal bo'yicha modani istiqbol yo'nalishi.

| | |
|---|---|
| | **5.** Materialni tanlash va asoslash.<br>**6.** Ijodiy manbani tanlash va asoslash.<br>**7.** Loyihalash usulni tanlash va asoslash.<br>**8.** Mantiqiy qatorlarni tavsifi.<br>**9.** Ishlab chiqilgan modellar kolleksiyasini tavsifi<br>**10.** ATMni konstruktsiyasini ishlab chiqish.<br>**11.** ATMni ishlab chiqish texnologiyasi<br>**12.** Ekologik qisim. |
| 3. | **IV. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br><br>- kostyum elementlarini va liboslar to'plamlarini yaratishda kreativ fikrlash va ijod qilish qobiliyatlarini rivojalantirish,<br>-sifat, sifat ko'rsatkich, tola, ip, gazlama, trikotaj va noto'qima matolarining sifatini aniqlash standartlari;<br>-funksional, texnik – iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hamda yuksak badiiy-estetik ko'rinishga ega kostyum shakllarni yaratish va dizayn-loyihasini ishlab chiqish ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***<br>- ijodiy tasavvurni rivojlantirish, loyihalashni ijodiy vazifasini echish uchun turli ijodiy manbaalarni va kreativ yo'llarni topish, evristikani turli usullarining o'rganish va ularni dizayn-loyihasini ishlab chiqishda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.<br>-dizayn va modaning zamonaviy yo'nalishini, moda sanoatida grafik tasvirlarni zamonaviy tehnologiyalarini, loyihalash jarayonini ijodiy manbaalarini, zamonaviy badiiy kompyuter dasturlarini, yangi modellar mustaqil tanlash va asoslash, kostyum elementlari konstrukciyalarini, dizayn-loyihalash usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>-yangi modellarni loyihalashda loyiha oldi tadqiqotlarni o'tkazish, o'zbek milliy kostyumlari mintaqaviy belgilarini aniqlash, funksional, texnik – iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hamda yuksak badiiy-estetik ko'rinishga ega kostyum shakllarni yaratish va dizayn-loyihasini ishlab chiqish, namuna va modellarni (maketlarni) materialda bajarish, liboslar to'plamlarini yaratishda kreativ fikrlash va ijod qilish qobiliyatlarini rivojalantirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***<br>-kostyumni tashqi ko'rinishi bo'yicha tahminiy bichimini chizish, kostyum maketini turli usulda yaratish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |

| | |
|---|---|
| 4. | **V.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• amaliy mashg'ulotlar;<br>• mustaqil mashg'ulotlar;<br>• interfoal keys-stadilar;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• jamoa bo'lib ishlash;<br>• video materiyallar tayyorlash;<br>individual ishlash. |
| 5. | **VI. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fiklay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan Sketchbook tayorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br><br>1. X.X.Kamilova, U.A.Voxidova. Loyihalash. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2017, 188 b.<br>2. Hywel Davies. Fashion Designers' Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2010<br>3. Зарида Заман. Справочник дизайнера по формам и стилям одежды. Москва 2008.<br>4. Д. Такамура. Фэшн-дизайн. Техники и приёмы. Республика Беларусь, ООО "Попури" 2020.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>5. Jacqueline McAssey, Clare Buckley. Fashion Styling. Стр.176<br>6. Н.С. Макаева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум.-М.: Академия, 2008.-230с.<br>7. В.В.Ермилова, Д.Ю. Ермилова. Моделирование и художественное оформление одежды. 2000.-184 с.<br>8. В.В. Ермилова "Композиция костюма" М. Академия, 2003.<br>9. Ф.М.Пармон. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. -М. "Триада плюс", 2002. – 312 с.<br>10. Tomoko Nakamichi, Patter Magic-L.: EC1V 1LR-2013. -53 p.<br>11. Hywee Davies, Fashin Designers Skeatchbooks- L.: Laurence King Publishing Ltd-2010 |

| | |
|---|---|
| | 12. Ш. Зеленг. Век модельеров. 1900- 1999 – Штутгар: 2001.<br>13. N.Sodiqova, - O‘zbek milliy kiyimlari XIX- XX asrlar- T.: G‘.G‘ulom – 2006. -192 b.<br>14.Журналы «Style», «Vogue», «BurdaModen», «Индустрия моды», «Текстильная промышленность», «Кожевенно-обувная промышленность», «Швейная промышленность».<br>**Axborot manbalari:**<br>1. Аудиокнига DASHA GAUSER: ДНК моды. Как стать fashion-дизайнером своего бренда. Даша Гаузер купить – слушать онлайн или скачать на Литрес<br>2. Фэшн-фильм. Искусство и реклама в цифровую эпоху скачать бесплатно в epub, fb2, pdf, txt, Ник Рис-Робертс \| Флибуста<br>3. https://www.thesymbol.ru/<br>4. Рисуйте как fashion-дизайнер: Уроки визуального стиля - Елена Астахова - Google Книги<br>5. ru.scribd.com<br>6. https://www.fitnyc.edu/academics/academic-divisions/art-and-design/fashion-design/index.php<br>7. https://www.fitnyc.edu/academics/academic-divisions/graduate-studies/fashion-textile-studies/index.php |
| 7. | Fanning o‘quv dasturi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil “27” 08 dagi “1”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>Fuzailova K.R. – TTYSI, «Moda va dizayn» kafedrasi dotsenti<br>Zufarova Z.U – TTYSI, «Moda va dizayn» kafedrasi PhD assistenti |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Raxmatullayeva U.S. – « Moda va dizayn » kafedrasi professori, f.f.n.<br>Xodjayeva U.M. – MRDI, «Liboslar dizayni» kafedrasi dotsenti |

**Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.**

| № | OTMnomi | QS | THE | Havolalar | Sillabusdagi mavzu nomi | Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | National University of Singapore (NUS) | 8 | | https://www.nus.edu.sg/nusbulletin/ay202122/programmes/school-of-design-and-environment/undergraduate-education/?utm_source=chatgpt.com | 2- mavzu rejasida ishlatilgan mavzular | 2. Analysis of models and ideas that play an active role in the development of the global fashion and textile industry in local and international markets. Market strategies of other important brands of the project, such as entrepreneurship, social media marketing, and business analysis. |
| 2 | Massachusetts Institute of Technology (MIT, AQSh) | 1 | 1 | https://architecture.mit.edu/sites/default/files/2022-07/2022-2023_undergradhandbook.pdf | 8- mavzu rejasida ishlatilgan mavzular | 8. Development of a set of author's clothing according to the given assortment. Preparation of an advertising project for a set of dresses. Design of a Sketchbook using modern computer graphics software for the project. |
| 3 | Эдинбургский университет | 27 | 22 | Fashion - BA (Hons) \| Edinburgh College of Art | 52-53 mavzu rejasida ishlatilgan mavzular | 51. Adapting the creative source to fashion trends. Transformation, justification, and selection of creative sources. Create portfolio<br>52. Stylization of a creative source. General solution and analysis of compositional means of style and visual methods. Creating a |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | skatebook.<br>Create a personal brand<br>Research methods<br>Sketch and digital design skills<br>Portfolio building<br>Creative and advanced cutting methods |
| 4 | Эдинбургский университет | 27 | 22 | Fashion - BA (Hons) \| Edinburgh College of Art | 8-9-mavzu rejasida ishlatilgan mavzular | Creation of fashion illustrations and sketches based on "Procreate," "CorelDRAV" graphics editor programs. |
| 5 | Университет Цинхуа | 25 | 12 | https://www.enad.tsinghua.edu.cn/Admissions/Undergraduate.htm | 16-mavzu rejasida ishlatilgan mavzular | 16. Creating a fashion brand, developing a business model, financial planning. Market analysis, study of consumer behavior, study of decision-making based on data. Analysis of strategies. |
| 6 | Университет Цинхуа | 25 | 12 | https://www.enad.tsinghua.edu.cn/Admissions/Undergraduate.htm | 36-mavzu rejasida ishlatilgan mavzular | 36. Study of modern fashion trends and analysis of the DNA base of well-known brands. |

